

## DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ikromov Elyor Ibodulloevich**

*Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Budjet, Budjet tizimi, Budjetni rejalashtirish, Iqtisodiy normativlar, Davlat moliyasi, Davlat budjeti, Mahalliy budjet, Budjet daromadi, Budjet xarajati.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Budjet daromadlari davlat vazifalarini bajarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush farovonligini yaxshilash kabi bugungi kundagi asosiy maqsadlarni amalga oshirish muammolari muhokama qilinadi. Shuningdek ushbu maqolada ayrim jihatlarga e'tibor qaratilgan, ya'ni budjetning barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, aytish mumkinki bugungi kunda Davlat moliyasini sog'lomlashtirish davlat budjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash maqsadida yurtimizda yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida to'xtalib o'tildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Yurtimizda chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi zamonda davlat budjeti daromatlari yaxshilanishi va samarali boshqarilish ahamiyati g'oyat yuksakdir. Bugungi kunda Davlat tomonidan islohotlar qilish va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, xamda ularning samaradorligini yanada oshirish kabi vazifalarini kun tartibiga qo'yar ekan u o'z navbatida budjet daromadlarini samarali shakllantirish tizimini joriy qilmoqligi zarur xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy kategoriyaning namoyon bo'lish shakli budjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 3-moddasida davlat budjeti tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra davlat budjeti - davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi.

Demak, budjet iqtisodiy kategoriya sifatida o'zida davlatning bir yilga mo'ljallangan daromadlari va xarajatlarini ifodalaydi. Moliya yiliga mo'ljallangan daromadlar va xarajatlar rejalashtirilib, tasdiqlanadi. Ularni amalga oshirish esa budjet munosabatlari hisoblanadi.

2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo'yicha deklaratsiya asosida to'lanadigan soliqlar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

Qurilish materiallari Bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi soliq turlari to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan hamda g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar tegishincha 2021-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 63 foizi, Toshkent viloyatida 42 foizi, Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 63 foizi, Toshkent viloyatida 40 foizi, Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i tushumlarini tumanlar va shaharlar budjetlariga yo'naltirishga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag'larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, daromadning ushbu turi Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o'tkaziladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz kerakki mamlakatimizda mavjud ijtimoiy ehtiyojlarini mablag' bilan ta'minlash uchun mustahkam moddiy asosni yaratish zarur, lekin davlat budjeti daromadlarisiz bunga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham davlat budjetining daromadlari tushumini barqarorligi mamlakat iqtisodiyotini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Biz davlat budjeti daromadlarini tarkibida birgina soliqlarning mohiyati va soliq munosabatlarining ahamiyatini o'rganar ekanmiz soliqlar budjet daromadlarini shakllantirishda va iqtisodiyotni rivojlantirishda qanchalik muhim vazifalarni amalga oshirishini tushunib yetdik. Mahalliy budjetni daromadlarini rivojlantirish uchun eng avvalo ayrim soliqlar bo'yicha ko'zlangan prognozlar amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. budjetni daromadlarini rivojlantirish uchun birinchi navbatda soliqlarni rejalashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish zarur, ikkinchi tomondan tushumlarni o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlash kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, budjet daromadlarini rejalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: Soliq budjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish;

Soliq sohasida bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usullari, muddatlari hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish; Soliq sohasini ilmiy asoslangan va jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida qo'llaniladigan usullarni tatbiq qilish;

Davlat budjeti daromadlarini to'g'ri rejalashtirish, ijrosini belgilangan tartibda va miqdorlarda ta'minlash davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Malikov T.S, Olimjonov O.O Moliya darslik-T "Iqtisod-moliya", 2019 125 b.
2. Vahobov.A.V, Jo'rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
3. E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslani soliqqa tortish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b
4. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
5. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 13(13).
6. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 381-387.
7. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 21, 56-60.
8. Явмутов, Д. Ш. & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
9. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.
10. Орипов, М. А. Аминова, Н. Б. & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. Вестник науки и образования, (13-2 (91)), 28-30.
11. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje. 41, 84-87.
12. To'rayevna, S. N. (2023). Biznes Sohasida Xodimlarni Topish Va Tanlash Bosqichlari. Miasto Przyszłości, 41, 184-190.
13. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 535-541.
14. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 582-586.
15. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 350-354).
16. Алимova Ш. А. Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур //Academy,(1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
17. Alimova S. A., Shavkatovich P. S. THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 359-364.
18. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. Modern Science and Research, 2(10), 293–300. Retrieved from

<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24349>

19. Jumaeva, Zulfiya. "Modern trends in the economic development of the regions of Uzbekistan." InterConf (2021).
20. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." Central Asian Problems of Modern Science and Education 2020.1 (2020): 48-55.